

4-1-2021

DIRECTIONS FOR IMPROVING ACCOUNTING IN BUDGET ORGANIZATIONS DURING THE DIGITAL ECONOMY

Azamat Ostonokulov PhD, Associate Prof.
Tashkent Institute of Finance

Akmal Ramazonov
Tashkent Institute of Finance

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

Recommended Citation

Ostonokulov, Azamat PhD, Associate Prof. and Ramazonov, Akmal (2021) "DIRECTIONS FOR IMPROVING ACCOUNTING IN BUDGET ORGANIZATIONS DURING THE DIGITAL ECONOMY," *International Finance and Accounting*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 23.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2021/iss2/23>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in International Finance and Accounting by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

*PhD, dots. Azamat Ostonokulov, Akmal Ramazanov
Toshkent moliya instituti*

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BYUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada byudjet tashkilotlarida mol yetkazib beruvchi va xaridorlar bilan hisob-kitoblar hisobini yuritishning asoslari tadqiq etilgan. Byudjet tashkilotlari “UzASBO” dasturiy majmuasida mol yetkazib beruvchi va xaridor (kontragent)lar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishning amaldagi holati va imkoniyatlari tahlil qilingan. Xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar bilan o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalarning integrasiyasini ta‘minlashning zarurligi va uning afzalliklari asoslangan. Raqamli texnologiyalar vositasida “UzASBO” dasturiy majmuasida mol yetkazib beruvchi va xaridor (kontragent)lar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishda elektron shakldagi hisobvaraqq-fakturalardan foydalanishni tashkil etish va bu bilan bog‘liq holatda tizimli tarzda amalga oshiriladigan vazifalar yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: byudjet tashkiloti, buxgalteriya hisobi, kontragentlar, nazorat, soliq to‘lovchilar, elektron hisobvaraqq-faktura, elektron raqamli imzo, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar, “UzASBO” dasturiy majmuasi.

*PhD, Associate Prof. Azamat Ostonokulov, Akmal Ramazonov
Tashkent Institute of Finance*

DIRECTIONS FOR IMPROVING ACCOUNTING IN BUDGET ORGANIZATIONS DURING THE DIGITAL ECONOMY

Abstract. This article examines the basics of accounting with suppliers and buyers in budget organizations. The current situation and opportunities for settlements with suppliers and buyers (counterparties) in the software package of budget organizations "UzASBO" are analyzed. The need to ensure the integration of digital technologies in the implementation of mutual settlements with businesses and its advantages are justified. Scientific proposals and practical recommendations on the organization of the use of electronic invoices for settlements with suppliers and buyers (counterparties) in the software package "UzASBO" with the help of digital technologies and the tasks to be performed systematically in this regard.

Keywords: budget organization, accounting, suppliers and customers, control, taxpayers, electronic invoicing, electronic digital signature, business entities, UzASBO software package.

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ularning ijrosi ta‘minlashda e‘tiborga molik qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganligini saqlab qolgan holda davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta‘minlash [2], davlat moliyasi tizimi va byudjet intizomini yanada mustahkamlash, soliq-byudjet tizimining shaffofligini oshirish [4] hamda byudjet jarayonining ochiqqligini ta‘minlash [1] ga qaratilgan huquqiy asoslar ishlab chiqilib, vakolatli organlarning bunga oid vazifalari va javobgarligi belgilandi.

Islohotlarning ijobiy samarasi o‘laroq davlat moliyasini boshqarish tizimini yangi bosqichga olib chiqish va byudjet intizomini yanada mustaxkamlash, soliq-byudjet tizimining shaffofligini oshirish maqsadida Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi (DMBAT) va byudjet tashkilotlari avtomatlashtirilgan axborot tizimi (UzASBO)dan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Natijada, soliq to‘lovlarini Yagona g‘azna hisobvarag‘ida hisobga olish, byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosini ta’inlash, byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasini elektron shaklini yuritish, byudjet tashkilotlarining shartnomalari va hisobvaraqq-fakturalarini elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash, ularning elektron to‘lov topshiriqnomalarini qabul qilish va to‘lash kabi davlat byudjeti ijrosiga oid masalalar amalga oshirib kelinmoqda.

Shuningdek, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish [3], soliq ma‘muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashni kengaytirish o‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraqq-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish [6] natijasida 2020 yil 1 yanvardan boshlab barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun hisobvaraqq-fakturalarni elektron shaklda rasmiylashtirish, saqlash va hisobini yuritish tizimi majburiy tartibda joriy etildi.

Byudjet tizimi bevosita mamlakat iqtisodiyoti va soliq tizimi bilan uzviy bog‘liq hisoblanib, byudjet ijrosini ta‘minlashda byudjet tizimining eng quyi bo‘g‘ini hisoblangan byudjet tashkilotlarining smetalari ijrosini amalga oshirishda xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan mahsulot (ish, xizmat)larning xaridi yuzasidan hisob-kitob munosabatlarini olib boradi. Byudjet tashkilotlari bir vaqtning o‘zida xo‘jalik yurituvchi subyektlar mahsulot (ish, xizmat)larining xaridori yoki o‘zi ishlab chiqargan mahsulot (ish, xizmat)larni yetkazib beruvchi sifatida iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirmoqda.

Mazkur jarayonda byudjet tashkilotlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi hisob-kitoblarda hujjatlar aylanishi hamda ularning hisobini yuritish bilan bog‘liq murakkabliklar vujudga kelmoqda. Hozirgi raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir davrda ushbu murakkabliklarni hal etish, byudjet tashkilotlarida mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblarda hujjatlar aylanishini soddalashtirish va ularning hisobini yuritishni takomillashtirishga qaratilgan izlanishlar olib borishni talab etadi. Bu esa, ushbu mavzuda ilmiy tadqiqot olib borish zaruriyatining mavjudligini anglatmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Tadqiqot mavzusiga oid olimlarning izlanishlarini ikki qismga ajratgan holda o‘rganish maqsadga muvofiq, ya‘ni byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish hamda raqamli texnologiyalar vositasida buxgalteriya hisobi tizimida hujjatlar aylanishi va hisob-kitoblarni amalga oshirish.

Bevosita, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish bo‘yicha xorijlik olimlardan Wan Zuriati Wan Zakaria boshchiligidagi tadqiqotchilar Malayziyaning davlat sektorida buxgalteriya hisobi axborot

tizimidagi belgilangan vazifalarning samaradorligini [9] o‘rganish bo‘yicha izlanish olib borishgan.

Fernando Belfo va Antonio Trigo buxgalteriya hisobi axborot tizimining axborot texnologiyalari vositasida ishlashi bilan bog‘liq jihatlarni tadqiq etgan. Bunda asosiy e‘tibor buxgalteriya axborotlarini qayta ishlash va foydalanuvchilarga taqdim etishning zamonaviy integrasiyalanish tendensiyalari, auditorlik tekshiruvlarida dalil sifatida ko‘rish tavsiya etilgan [10].

T.Poleshchuk va O.Mitina byudjet tashkilotlarining asosiy funksional vazifalari, buxgalteriya hisobi obyektlari va bo‘limlari hozirgi holati [11] bo‘yicha o‘zlarining ishlanmalarini amalga oshirishgan.

Mamlakatimiz olimlaridan M.Ostonokulov byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarni tuzish va byudjet nazoratini amalga oshirish [12], S.Mehmonov byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish [13], A.Ostonokulov byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalarini shakllantirish va hisobini takomillashtirish [14] borasida izlanishlar olib borishgan.

Ammo, hozirgi raqamli iqtisodiyot talablaridan kelib chiqib, mamlakat byudjet tizimi xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda byudjet tashkilotlarida mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisoblashuvlarda hujjatlar aylanishini soddalashtirish hamda ularning hisobini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanish olib borilmagan.

Tadqiqot metodlari

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning o‘ziga xos jihatlari, normativ huquqiy hujjatlar talablari va byudjet hisobi standartlari qoidalari hisobga olingan holda tizimli tahlil, analiz, sintez, taqqoslash, qiyosiy tahlil va boshqa shu kabi bir qancha tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda barcha sohalarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar barobarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3802-sonli Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 oktyabrdagi “Soliq ma‘muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 807-son hamda 2019 yil 25 iyundagi “O‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvara-q-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 522-son Qarorlari qabul qilindi. Ushbu normativ huquqiy hujjatlar asosida respublika hududida 2019 yil 1 iyuldan boshlab ixtiyoriy ravishda, 2020 yil 1 yanvardan boshlab barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun hisobvara-q-

fakturalarni elektron shaklda rasmiylashtirish, saqlash va hisobini yuritish tizimi majburiy tartibda joriy etildi.

Bu bilan bog‘liq holatda xo‘jalik yurituvchi subyektlarga hisobvaraqq-fakturalar, tovar-transport yukxatlari va tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni elektron shaklda taqdim etish bilan bir vaqtda qog‘oz shaklida tuzish huquqi, elektron hujjat almashish operatorlariga qonunchilikda belgilangan tartibda elektron hisobvaraqq-fakturalarni elektron aylanishi va saqlanishini ta‘minlash bo‘yicha xizmatlarni amalga oshirish huquqi berildi.

Yuqorida keltirilgan normativ hujjatlarda belgilangan talablardan kelib chiqib, “O‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraqq-fakturalardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi [5]. Ushbu nizom amalda xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida sotish va sotib olish bilan bog‘liq munosabatlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan. Amaliyotda o‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraqq-fakturalardan foydalanish amaliyoti bilan bog‘liq quyidagilar qo‘llanib kelinmoqda (1-jadval).

1-jadval

O‘zaro hisob-kitoblar tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq holatlar va ularning mazmuni¹

№	Qo‘llanilayotgan tushuncha	Izoh
1.	Elektron hisobvaraqq-faktura (EHF)	mahsulot (ish, xizmat)larni sotish va sotib olishni tasdiqlaydigan, EHF aylanish tizimi operatorlari orqali taqdim etiladigan va qabul qilinadigan, qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan shakllarda rasmiylashtirilgan elektron hujjat
2.	EHF aylanish tizimi operatori	qonun hujjatlarida belgilangan talablarni bajargan EHFning aylanishi va ularni saqlash faoliyati bilan shug‘ullanishga ruxsat etilgan yuridik shaxs maqomiga ega axborot vositachisi
3.	Rouming operatori	EHFning markazlashtirilgan holda saqlanishi, operatorlararo uzatilishi va hisobining yuritilishini ta‘minlaydigan yuridik shaxs
4.	EHF identifikatori	EHFni masofadan identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rouming operatorining axborot tizimi tomonidan avtomatik ravishda belgilanadigan EHFning o‘ziga xos raqami
5.	EHF aylanish tizimining ishtirokchilari	EHF aylanish tizimida mahsulot (ish, xizmat)larni sotuvchi va sotib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar
6.	QR-kod	tasdiqlangan EHFga biriktiriladigan va hujjat qog‘oz shaklida chop etilganda ko‘rsatiladigan, mobil ilovalar va dasturiy mahsulotlar orqali o‘qish (skanerlash) vaqtida EHF haqida barcha ma‘lumotlarga havola bo‘ladigan maxsus grafik kod

EHF yuritish natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar (soliq to‘lovchilar)ga quyidagi qulayliklar yaratildi:


1. An’anaviy hisobvaraqq-fakturalarni qog‘ozda tayyorlashda sarflanadigan moddiy va inson resurslaridan samarali foydalanish;

¹ Mualliflar tomonidan tuzilgan.

2. Hisobvaraқ-fakturalarni qulay va oson yuritish;
3. Hisobotlarni yuborish jarayonini avtomatlashtirish.

Fikrimizcha, ushbu qulayliklar va maʼlumotlarni raqamlashtirish boʻyicha kiritilgan oʻzgarishlar faqat, xoʻjalik yurituvchi subyektlar uchun manfaatli boʻlgan holda, byudjet tashkilotlarida foydalanish nazarda tutilmagan.

Bizningcha, elektron shakldagi hisobvaraқ-faktura (EHF)lardan foydalanish tartibini byudjet tashkilotlarida ham joriy etish mumkin. Chunki, EHF yuritilishi byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablagʻlarining sarflanishi nazorati va ushbu mablagʻlarning qanday sarflanayotganligi monitoringini olib borishda moliya organlari va nazorat organlariga qulaylik tugʻdiradi (1-rasm).



1-rasm. “UzASBO” dasturiy majmuasida elektron hisobvaraқ-faktura oynasini kiritishning afzalliklari²

Byudjet tashkilotlari va xoʻjalik yurituvchi subʼektlar oʻrtasida oʻzaro iqtisodiy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan muammolarni bartaraf etamiz. Chunki, byudjet tashkiloti xoʻjalik yurituvchi subyektga oʻzining biror bir ish yoki xizmatini taklif etib, oʻzaro hamkorlik oʻrnatadigan boʻlsa, xoʻjalik yurituvchi subyekt bajarilgan ish yoki xizmat boʻyicha bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob fakturasini EHF aylanish tizimi operatori yordamida yuborishni talab qilishga haqli. Byudjet tashkilotlari oʻz faoliyati davomida mol yetkazib beruvchi tashkilotlar sifatida xususiy sektor vakillari bilan hamkorlik qilishi natijasida yetkazilgan maxsulot (bajarilgan ish va xizmat)lar uchun schyot fakturani elektron tarzda xoʻjalik yurituvchi subyektga yuborishga majburlar.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 522-sonli “Oʻzaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraқ-fakturalardan foydalanishni

² Mualliflar tomonidan shakllantirilgan

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida byudjet tashkiloti uchun rouming operatoridan foydalanish imkoniyati nazarda tutilmagan.

Ushbu qaror doirasida respublikamizda bir qancha rouming operatorlari o‘z faoliyatlarini tashkil qilgan bo‘lib, bu operatorlarning deyarli barchasi oldindan amalga oshiriladigan to‘lov tizimi orqali xizmat ko‘rsatadi. Faqat, didox.uz [16] tizimida ixtiyoriy tekin xizmat turi taklif etilgan bo‘lib, hozirda ko‘pgina byudjet tashkilotlari ushbu tizimdan foydalanmoqda. Lekin, byudjet tashkilotlarining davlat va jamiyatdagi tutgan o‘rni va ahamiyatini inobatga oladigan bo‘lsak, bu yetarli emas.

Xulosa va takliflar

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi “UzASBO” dasturiy majmuasi vositasida elektron tarzda yuritilishi, davlat moliyasini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi (DMBAT) bilan axborot almashish imkoniyatining mavjudligi, internet tarmog‘i vositasida ishlashini hisobga oladigan bo‘lsak, quyidagi tizimli ishlarni amalga oshirish zarur.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 522-sonli “O‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvara-q-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga tegishli tartibda o‘zgartirishlar kiritib, rouming operatorida byudjet tashkilotlarining manfaatlariga mos ta’riflar ishlab chiqish zarur.

Ikkinchidan, barcha byudjet tashkilotlari “UzASBO” dasturiy majmuasidan foydalanishini inobatga olgan holda dasturiy majmuaning “Hujjatlar” menyusida “Elektron hisobvara-q-faktura” oynasini kiritish, ushbu oynada rouming operatorining barcha funksiyalarini o‘zida jamlagan tizim yaratilishi, byudjet tashkilotlari uchun yanada samarali bo‘ladi.

Uchinchidan, dasturiy majmuaning “Elektron hisobvara-q-faktura” oynasi orqali qabul qilingan elektron hisobvara-q-fakturalar mahsulot(ish va xizmat)larni qabul qilish orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri tegishli provodkalar avtomatik tarzda shakllantirilib, mahsulot(ish va xizmat)larni xarajat moddalariga taqsimlagan holda tegishli bo‘limda xamda balansda aks ettirilishini ta’minlashga xizmat qiladigan tizim yaratish zarur. Hozirgi vaqtda amaldagi dasturiy majmuaning “Hujjatlar” menyusida “Ishonchnoma” bo‘limida ishonchnoma elektron shaklda rasmiylashtiriladi, lekin, uni mol yetkazib beruvchi tashkilotga elektron yetkazib berish imkoniyati mavjud emas. Mahsulotni kirim qilishda “Spravochnik TMZ” bo‘limida alohida ro‘yxat shakllantirish, balansga kirim qilishda kiritiladigan bo‘limni tanlash, provodkani tanlash kabi murakkab buxgalteriya amallari bajarib kelinmoqda.

“UzASBO” dasturiy majmuasida hisobvara-q-fakturalarni qabul qilish imkoniyati yo‘qligi sababli amalda byudjet tashkilotlari kommunal xarajat (suv, elektr energiya, chiqindi) internet xizmati kabi hisobvara-q-faktura orqali yopilishi kerak bo‘lgan xarajatlarni yopish uchun dasturiy majmuaning “Hujjatlar”

menyusida “Bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmatlar) dalolatnomasi” bo‘limida dalolatnoma yaratish orqali kreditor qarzdorliklarni yopmoqda.

Biz tomondan ilgari surilayotgan taklif asosida “UzASBO” dasturiy majmuasi menyusida “Elektron hisob faktura” oynasi yaratilishi orqali barcha byudjet tashkilotlarida elektron hisob fakturalarni qabul qilish orqali qarzdorliklar avtomatik ravishda yopilishiga erishamiz. Ya’ni, “Hujjatlar” menyusidagi “Bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmatlar) dalolatnomasi” bo‘limi orqali dalolatnoma yaratishga hojat qolmaydi.

To‘rtinchidan, hozirgi vaqtda byudjet tashkilotlarida o‘z faoliyatidagi barcha byudjetdan tashqari tushumlardan soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozga ega hisoblanib, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar faqatgina, buxgalteriya balansidagi 285 - “Byudjetga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga hisoblangan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar” [7], (O‘zbekiston Respublikasi byudjet hisobining 2-sonli standarti “Yagona schyotlar rejasi” (BHS) asosida 986 000 - “Byudjetga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga hisoblangan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar”) [8] subschyotida umumlashgan holda aks ettirilmoqda. Lekin, imtiyozlar bo‘yicha tahliliy ma’lumot olish imkoniyati yo‘q.

Taklif etilayotgan yo‘nalishlar mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqaruvchi byudjet tashkilotlari ixtiyoriga soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyoz natijasida qancha miqdorda byudjetdan tashqari tushumlar olinayotganligini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet kodeksi” 2013 yil 26 dekabrda O‘RQ-360-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3802-sonli Qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 30 dekabrda PQ-4555-son Qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 iyundagi 522-sonli “O‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraqq-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 6 oktyabrda 807-sonli “Soliq ma‘muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

7. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma. O‘z. Res. AV da 22.12.2010 yilda 2169-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan, (17.03.2018 y. AVda 2169-2-son bilan ro‘yxatga olingan yangi tahriri)
8. O‘zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (2-sonli BHS) “Yagona schyotlar rejasi” O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 20 oktyabrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3078
9. Wan Zuriati Wan Zakaria, Norazlina Ilias, Norlidawahi Wahab. A Survey on the Impact of Accounting Information System on Tasks Efficiency: Evidence from Malaysian Public Sector Agencies. *International Review of Management and Marketing*. ISSN: 2146-4405. 2017, 7(1), 183-190.
10. Fernando Belfo, Antonio Trigo Accounting Information Systems: Tradition and Future Directions. *Procedia Technology*. Volume 9, 2013, Pages 536-546. <https://doi.org/10.1016/j.protcy.2013.12.060>
11. Полещук Т.А., Митина О.В. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях. Учебное пособие. 2020 г. 138 стр.
12. Ostanauqulov M. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. 328 b.
13. Mehmonov S.U. “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish” i.f.d. diss. avtoref. 76 b. – T., 2018.
14. Ostonokulov Azamat Abdukarimovich. Budget Organizations Formation and Improving Accounting for Out-of-Budget Budgets. *International Journal of Advanced Science and Technology*. Vol. 29 No. 8s (2020): Vol. 29 No. 8s (2020) Special Issue. <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10409>

Internet saytlari:

15. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
16. www.didox.uz Elektron hisobvara-q-fakturalar rouming operatori